

135. Yaxlit sonlarni ko'paytirish


Yondosh mavzu:
foydali taom.

Yaxlit sonlar, nol.



1. Qandolatchilik fabrikasida bir kunda 40 kilogramm konfet tayyorlanadi. Haftaning besh ish kunida qancha konfet tayyorlanadi? Shunday ikki haftada-chi?

2. Bayram kunlari meva va shirinliklar savdosini aks ettiruvchi grafikni ko'rib chiqing.



- a) Yangi yilda necha kilogramm shirinlik sotilgan?
b) Qaysi bayram kuni hammadan ko'p meva sotilgan?
d) Qaysi kuni shirinlik va mevalar bir xil miqdorda sotilgan?

3. Qulay usul bilan hisoblang.

$$(3 \cdot 8) \cdot 5$$
$$5 \cdot (4 \cdot 9)$$

$$(2 \cdot 3) \cdot 50$$
$$50 \cdot (2 \cdot 7)$$

$$(6 \cdot 4) \cdot 5$$
$$5 \cdot (8 \cdot 3)$$



4. Bir asalari qutisidan 9 kilogramm, ikkinchisidan ikki marta ko'p asal yig'ib olindi. Hamma asal 3 kilogrammdan qilib bankalarga solindi. Nechta banka kerak bo'lgan?



5. Kvadratlar qanday qonuniyat asosida bo'yalganini aniqlang. Kvadratlarni bo'yashni davom ettiring.

14	18	31	45	9	7	13	27	41
19	3	16	24	32	8	12	6	13
15	5	40	9	18	21	31	33	42
9	15	20	36	4	8	16	50	51
15	13	5	9	10	7	32	41	50
9	17	40	38	8	12	20	7	18
1	3	5	9	10	11	14	17	27



6. Qulupnay ekilgan maydonning eni 50 metr, bo'yi esa ikki marta katta. Bu maydonni o'rab olish uchun qanday uzunlikdagi taxta devor kerak bo'ladi? Maydonning yuzi qanday?



7. Noma'lum qiymatlarni topish uchun ifoda yozing.

	Bitta grafinda	Grafinlar soni	Umumiy hajmi
	2 l	40	?
	3 l	?	180 l
	?	20	200 l



8. Hisoblang.

$$7 \cdot 10$$

$$8 \cdot 100$$

$$9 \cdot 10$$

$$6 \cdot 100$$

$$10 \cdot 5$$

$$100 \cdot 7$$

$$10 \cdot 2$$

$$10 \cdot 10$$